

**XRIZANTEMA (CHRYSANTHEMUM) GULINI
VEGETATIV KO`PAYTIRISH**

ВЕГЕТАТИВНОЕ РАЗМНОЖЕНИЕ ХРИЗАНТЕМЫ
(CHRYSANTHEMUM)
VEGETATIVE PROPAGATION OF CHRYSANTHEMUM
(CHRYSANTHEMUM)

Xalilova Ozoda Otabek qizi

Toshkent davlat agrar universiteti, talaba Toshkent

Ozodaxalilova706@gmail.com**Turdaliyev Asadbek Toxir o`g`li**

Toshkent davlat agrar universiteti, talaba. Toshkent

Asad-bek000@mail.ru**Shukurova Go`zal Botirbek qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti, assistent. Toshkent

shukurovag@1994mail.com

Халилова Озода Отабек кизи

Ташкентский государственный аграрный университет,
студент. ТашкентOzodaxalilova706@gmail.com

Турдалиев Асадбек Тохир угли

Ташкентский государственный аграрный университет,
студент. ТашкентAsad-bek000@mail.ru

Шукурова Гузал Ботирбек кизи

Ташкентский государственный аграрный университет,
ассистент. Ташкентshukurovag@1994mail.com

Khalilova Ozoda Otabek qizi

Tashkent State Agrarian University, student . Tashkent

Ozodaxalilova706@gmail.com

Turdaliyev Asadbek Toxir o`g`li

Tashkent State Agrarian University, student . Tashkent

Asad-bek000@mail.ru

Shukurova Guzal Botirbek qizi

Tashkent State Agrarian University, Assistant. Tashkent

shukurovag@1994mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda juda ko`plab yetishtirilayotgan bahor va kuz mavsumi uchun manzaraviy gulli o`simliklaridan biri xrizantema haqida ilmiy ma`lumotlar keltirilgan. Shu jumladan xrizantemaning kelib chiqishi, uning turlari hamda ko`paytirish usullari haqida ham ma`lumot berilgan. Hozirgi kunda uzoq tarixga ega bo`lgan ushbu gul o`simligining ko`plab navlari yetishtirilmoqda. Xrizantema nafaqat landshaft dizaynda shahar va ko`chalarni ko`kalamzorlashtirish uchun balki xonadonlarni ko`kalamzorlashtirish uchun ham ekiladi. Xususan

xrizantema gulining asosiy ikkita navi: mayda gulli (koreys) va yirik gulli (hind) issiqxonalarda yetishtirilib kelinmoqda. Bundan tashqari O`zbekistonda gulchilik va ko`chatchilikni rivojlantirish to`g`risida Prezident qarorlari ham keltirilgan.

Kalit so`zlar: xrizantema, A.K.Kiyatkin, gulchilik va ko`chatchilik, xrizantema turlari, vegetativ, ko`paytirish, parvarishlash

Аннотация: В данной статье представлены научные сведения о хризантеме, одном из декоративно-цветущих растений весенне-осеннего сезона, культивируемых сегодня. В том числе информация о происхождении хризантемы, ее видах и способах размножения. В настоящее время культивируется множество сортов этого цветочного растения, имеющего многовековую историю. Хризантему сажают не только для озеленения городов и улиц в ландшафтном дизайне, но и для озеленения домов. В частности, в теплицах выращивают два основных вида цветков хризантем: мелкоцветковую (корейскую) и крупноцветковую (индийскую). Кроме того, представлены решения президента по развитию цветоводства и садоводства в Узбекистане.

Ключевые слова: хризантема, А.К. Кияткин, цветоводство и питомничества, виды хризантем, вегетативное размножение, уход.

Abstract

This article presents scientific information about chrysanthemum, one of the decorative flowering plants of the spring-autumn season, cultivated today. Including information about the origin of chrysanthemum, its types and methods of reproduction. Currently, many varieties of this flower plant, which has a long history, are cultivated. Chrysanthemum is planted not only for landscaping cities and streets in landscape design, but also for landscaping houses. In particular, two main types of chrysanthemum flowers are grown in greenhouses: small-flowered (Korean) and large-flowered (Indian). In addition, the president's decisions on the development of floriculture and horticulture in Uzbekistan are presented.

Key words: chrysanthemum, A.K.Kiyatkin, floriculture and nurseries, types of chrysanthemums, vegetative propagation, care.

Kirish. Hozirgi kunda yurtimizda ko`kalamzorlashtirishga juda katta e`tibor qaratilmoqda. Shu boisdan mamlakatimizda bir yillik va ko`p yillik gullarni ko`paytirish kundan kun rivojlanib kelinmoqda. Gulchilik ham ko`kalamzorlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Buni tasdig`i sifatida gulchilik va ko`chatchilikni rivojlantirish to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2021 yilda qabul qilingan 5209-sonli qarorini keltirishimiz mumkin. Unda gulchilik bo`yicha olib borilishi kerak bo`lgan chora tadbirlarni mutaxassislar zimmasiga yuklatilganligi bundan tashqari tadbirkorlik qilish uchun ko`plab imkoniyatlar borligini ko`rishimiz mumkin[1]. Bundan tashqari 2023 yilning 23 oktyabrida Respublika hududlarida "Gulchilik va ko`chatchilikni rivojlantirish, mahalliy va xorijiy gul navlarini parvarishlash hamda qishloq xo`jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini yanada mustahkamlash maqsadida davlat tomonidan qo`llab-quvvatlashga doir qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida"gi PQ-341 sonli qarori qabul qilingan. Qarorga ko`ra: 2023-yil 1-noyabrdan 2026-yil 1-yanvargacha qadar tuganaklar,

piyozboshlar, tunganaksimom ildizlar, tunganak piyozlar, ildizpoya, jumladan vegetativ tinim holatidagi, vegetatsiya yoki gullash davridagi sertarmoqlari, boshqa tirik o`simliklar (jumladan, ildizlari), qalamchalar va parxishi (TIF TN kodi 0601 va 0602) importida bojxona bojining nol stavkasi qo`llash belgilab berildi. Endilikda Toshkent davlat agrar universitetiga qarashli ilmiy tadqiqot maydonlarida ham gulchilikni rivojlantirish maqsadida issiqxonalar tashkil etish taklifi berildi va bu taklif amalga oshirish ishlari rejalashtirilmoqda. Shuningdek, bugungi kunga kelib shahrimizda keng tarqalayotgan gul turlaridan biri ko`p yillik gul hisoblangan va Astradoshlar oilasiga mansub bo`lgan xrizantema gulidir. Xrizantema gulining mayda chiroyli gullari uchun klumba, rabatka, miksborder kabi kompozitsiyalar barpo etishda keng foydalanilmoqda.

Tadqiqot obyektlari va uslublari. Tadqiqot obyekti xrizantema guli hisoblanadi. O`simliklarni vegetativ ko`paytirish ГОСТ 28852-90 “Рассада цветочных культур” va ГОСТ 28851-90 “Черенки цветочных культур uslubu” orqali o`tkazildi. Xrizantema (*Chrysanthemum*) gulini ko`paytirish uchun 7-15smgacha bo`lgan qalamchalar tayyorlab olinadi va turli xil usullardan foydalaniladi. Qalamchalarni tayyorlashda xrizantema gulining yangi yashil novdachalaridan tayyorlandi hamda asosiy bog`inidan ham tayyorlanib bir biri bilan solishtirilib korildi. Shu bilan bir qatorda ushbu gulning ekish uchun yer tayyorlash agrotexnikasi, parvarishlash ishlari nazariy bilimlarga asosan o`rganib chiqildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Xrizantema guli 3 ming yil ilgari qadimgi Sharqda o`stirilgan. So`nggi asrlarda Yevropa va Amerikada seleksiya yo`li bilan yaratilgan. Hozirgi kunda xrizantemaning yovvoyi holda 150dan ortiq turi aniqlangan. Xrizantema bir yillik va ko`p yillik buta o`simlik hisoblanadi. Ko`kalamzorlashtirishda xrizantemaning ko`p turlaridan foydalaniladi. *Chrysanthemum arcticum* L., *Chrysanthemum argyrophyllum* Ling, *Chrysanthemum arisanense* Hayata, *Chrysanthemum chalingolicum* Grubov, *Chrysanthemum chanetii* H.Lév., *Chrysanthemum indicum* L., *Chrysanthemum crassum* (Kitam.) Kitam. shular jumlasidandir.[2] Tilsimon gullarining tuzilishi, to`pgullarida joylashuvi juda ham har xil bo`ladi. Jumladan: bir qadar seryaproq oddiy to`pgullar, seryaproq to`pgullar, sharsimon yoki yarim sharsimon to`pgullar, patsimon to`pgullar, shulasimon to`pgullar, tukli to`pgullar, osma to`pgullar. Xrizantema klassifikatsiyasiga ko`ra to`pgullar sinflarga ajralgan. Xrizantema generativ va vegetativ usulda ko`paytiriladi. Xrizantemalarni vegetativ qalamchalaridan ko`paytirish samarali usul hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasiga ko`ra xrizantemalarni (*Chrysanthemum*) yaxshi unib chiqishi qalamchalarni ekish vaqtiga bog`liqligi aniqlandi. Dekabr-yanvar oylarida ekilgan qalamchalar sekin unib chiqadi. Erta bahor fevral-mart oylarida ekilgan qalamchalar unib chiqishi tez va sifatli bo`ladi. Albatta bundan tashqari qalamchalarni ekishda ba`zi qonun qoidalarga amal qilingan holda ekiladi. Qalamchalar ikki xil qalamchalardan foydalanib ekiladi. Birinchi qalamchalar 7-15 sm uzunlikda va novdalarning uchidan olinadi, ikkinchi qalamcha esa novdaning pastki qismi ya`ni yog`ochlangan qismidan tayyorlanadi. Hammaga ma`lumki novdalarning uchidan tayyorlangan qalamchalar unishi yaxshi bo`ladi. Qalamchalar quyidagi usullarda tayyorlanadi. Birinchi navbatda qalamchalar kichik partiya qilib tayyorlanadi, qalamchalar o`tkir pichoq bilan kesib olinadi va yashikchalarga solinadi

so`ng ustidan suv purkaladi va ustidan plyonka yopib qo`yiladi. Tayyorlangan qalamchalar 50 donadan dasta qilib bog`lanadi va uchlari tekislanib yashikchalarga 1,5-2sm botib turadigan qilib suv quyiladi va ertlabgacha shu holda qoldiriladi. Shundan so`ng qalamchalar kornevin suyuqligiga botirilib kasetalarga ekiladi. Qalamchalar yumshoq torfli substratga ekish maqsadga muvofiq. A.K.Kiyatkinning o`rganishlariga ko`ra xrizantema gullarini har yili har xil yerlarga ekish maqsadga muvofiq. Bunga xrizantema gullarini zararkunandalardan va kasalliklardan hamda yaxshi o`sib rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Agar bunga sharoit yaratishni imkoni bo`lmasa, u holda turli kimyoviy moddalar bilan tuproqni oziqlantiriladi va shudgorlanadi. Bunda eng avvalo xrizantema gullini yerga ekishdan oldin maydon talabga javob beradigan darajada tayyorlanadi. Buning uchun avvalo xrizantema uchun ajratilgan maydon tekis va uncha katta bo`lmagan nishablikda bo`lishi, yorug` yaxshi tushib turadigan joy bo`lishi va suv bilan muntazam ta`minlab turilishi lozim. Yer maydoni kuz oylarida organik og`itlar berib tayyorlanadi, bunda tuproqqa gektar hisobida 150-200 tonnadan ortiq organik og`itlar va yarim tonnadan ortiq superfosfat solinadi. Bular yer yuzasiga bir tekis qilib solinadi va shundan so`ng 25-30sm chuqurlikda haydaladi. Begona o`tlar olib tashlanadi va ariqlar olinadi. Pushtalar kaltaroq 25-30m uzunlikda va balandligi 20-25sm bo`lishi lozim. Qatorlar oralig`i 60-70sm bo`lishi kerak. Qatorlar nazoratlash uchun sug`oriladi, kamchiliklar bartaraf qilinadi, so`ngra ekishga tayyorlanadi. Ko`chatlarni mahalliy sharoitga qarab gulzorlarga turli vaqtda ko`chirib o`tkazish mumkin. Ular oftob, chala oftob tushadigan joylarni yoqtiradi. Yaxshi o`sgan va baquvvat o`simliklar 10-apreldan boshlab ko`chirib o`tkaziladi. 1-2 C sovuq ko`chatlarga ziyon yetkaziladi. Bunda qator oralari 60-80sm, o`simliklar orasi esa 40-50sm qilib olinadi. 10-15sm chuqur kovlab, uni suvga to`yintirib, ekib chiqiladi. Ko`chat oralig`i ekilayotgan joyga qarab tanlanadi. O`simliklar gulzorga ekilgandan keyin ularni bir necha kun davomida qoldirib sug`orish lozim. Gullari uzib olinadigan gulzorlardagi o`simliklarda bittadan g`uncha qoldirib, qolganlari olib tashalanadi. Bu davrda o`simliklar oziqlantiriladi, buning uchun haftada bir ikki marta suyuq og`itlar bilan sug`oriladi. Xrizantema (Chrysanthemum) gullari yerga ekilgandan keyin tuproq yuzidan nam bug`lanishni kamaytirish, qatqaloq hosil bo`lishiga yo`l qoymaslik, hamda tuproqning qizib ketishini kamytirish uchun tuproqlarga chirindi tashlanadi va mulchalanadi. Xrizantemalar (Chrysanthemum) yaxshi o`sib rivojlanishi uchun ushbu gullarga doimiy parvarish talab qilinadi. Xrizantemalar (Chrysanthemum) yorug`sevar gul o`simligi hisoblanib, unga yetarli darajada yorug`lik tushishini ta`minlash talab etiladi, ayniqsa yangi nihollar uchun alohida parvarish talab etiladi. Buning uchun butun yoz bo`yi qatorlar orasini yumshatib turish, o`simliklarni orasini chopish, gullarga shakl berish va vaqtida sug`orish lozim. Xrizantema (Chrysanthemum) gullarini bir joyga 3 yildan ortiq ekib parvarishlab bo`lmaydi. Sababi ushbu gul o`ziga xos kasallik keltirib chiqarish xususiyatiga ega bo`lib, bakteriyalar, zamburug`lar, zararkunandalar va shu bilan birga o`zidan ajralib turadigan moddalar asta-sekin tuproqqa to`planadi, shu sababi xrizantema gullari o`z manzaraviyligini yo`qota boshlaydi. Shuning uchun ham xrizantemalarni har yili har xil joylarga ekishni maslahat beriladi.

Xulosa

1. Xrizantema (Chrysanthemum) guli kuz oylarida ko`chalarni ko`kalamzorlashtirishda keng qo`llanilayotgan o`simliklardan biri.
2. Xrizantema (Chrysanthemum) gulining turlari seleksiya yo`li bilan ko`plab gibrid turlar bo`lib, hozirgi kunda 42 ga yaqin turlari mavjud.
3. Xrizantema (Chrysanthemum) gullarini bir joyga 3 yildan ortiq ekib parvarishlab bo`lmaydi. Sababi ushbu gul o`ziga xos kasallik keltirib chiqarish xususiyatiga ega bo`lib, bakteriyalar, zamburug`lar, zararkunandalar va shu bilan birga o`zidan ajralib turadigan moddalar asta-sekin tuproqqa to`planadi, shu sababi xrizantema gullari o`z manzaraviyligini yo`qota boshlaydi. Shuning uchun ham xrizantemalarni har yili har xil joylarga ekishni maslahat beriladi.
4. Ushbu gulni yerga ko`chirish muddati va yerni tayyorlash agrotexnikasi bo`yicha nazariy bilimlar o`rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagi “Respublika hududlarda gulchilik va ko`chatchilik sohalarini yanada rivojlantirish to`g`risida” gi PQ-5209-sonli qarori
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24 oktabrdagi “Gulchilik va ko`chatchilik sohalarini davlat tomonidan qo`llab -quvvatlashga doir qo`shimcha chora -tadbirlar to`g`risida” gi PQ-341-sonli qarori
3. A.K. Kiyatkin “Xrizantema gullari” Toshkent-”Mehnat”-1990
4. X. Buriyev, L.Abduraxmonov, A. Jononbekova “Gulchilik ” Toshkent — «Mehnat» — 1999
5. X. Yuldashov “Ko`chatchilik va gulchilik ishlari” Toshkent «Davr nashriyoti» 2013.
6. www.agronet.uz
7. <http://www.gardenia.ru>